18–21 yoshdagi talaba futbolchilarning musobaqa faoliyati jarayonida hujum harakatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari	631
<i>Djemilov Temur Rasimovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yin vositalari orqali sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar samaradorligining ahamiyati.....	636
<i>Eshpo'latova Dilnoza Mamaniyoz qizi</i>	
Ota-ona bilan munosabatlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga ta'siri.....	641
<i>Izaitullayeva Lazokat Eshimboyevna</i>	
Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorligini oshirishda kompleks mashg'ulot tizimining samaradorligi.....	646
<i>Zaripova Farida Abdullayevna, Kamoliddinov Sharif Kamoliddin o'g'li</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida sport gimnastikasi mashg'ulotlarini rejalashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari.....	650
<i>Mirzayev Dilshod Xamidovich</i>	
Mahalla – “jonli muzey”: 6–7 yoshli bolalarda milliy g'ururni lokal identifikatsiya orqali kuzatish modeli.....	654
<i>Omondavlatova Diyora Otabekovna</i>	
Yengil dizatriyal bolalarda nutqning bo'g'in tuzilishi va uning shakllanish xususiyatlari.....	658
<i>Pardayeva Muxlisa Furqat qizi</i>	
Ochilmagan bo'z qalblar hazor.....	662
<i>Eshpulatova Saodat Maxmatovna</i>	



Speaking Fluency Development Based on CEFR Linguistic.....	665
Abdullayeva Charos Farkhodovna	
Integrating Visual-Based Activities in English Lessons for Primary School Pupils	670
Ataullayev Fazliddin	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligiga ta'siri	674
Bovanova Umida Abdurahobovna, Ashurova Dildora Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli	679
Bovanova Umida Abdurahobovna, Radjabova Gulchexra Xalbayevna	
Lotin tilini o'qitishda metodlarning qo'llanilishi va uning ahamiyati	683
Eshmurodova Shirin Oybekovna	
Nutqiy kompetensiyaning integratsion o'qitishda yangi metodlari va usullari	686
Fayzullayev Sarvar Ibrohim o'g'li	
Talabalarda affilativ motivatsiyani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va komponentlari	689
Omonova Nilufar Omon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim samaradorligini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning o'rni	694
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Qodirova Sarvinoz Bahodir qizi	
Tikuv texnologiyalari asosida o'quvchilarning amaliy topshiriqlar bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish	698
Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna	
Bo'lajak muhandislarning xorijiy til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlar uyg'unligi	702
Qurbonova Nafisa Saidjonovna	
Tárbiya párin oqítw arqalı oqíwshlardín kreativ qábiletin rawajlandırıw.....	706
Reymova Gulaim	
Mirishkor toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari	710
Ro'ziyeva Hilola Fayzulla qizi	
Taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi	714
Saydaxmadov A'zamxon Valixonovich, Qosimova Nargizaxon Rustamxon qizi	
The Role of Music in Human Spiritual Development and Educational Significance.....	717
Shokirkhonov Bakhtiyorxon Botirkhonovich	
Boshlang'ich ta'limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari.....	722
Sayfedinova Dildora Ikramiddinova	
Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun gosptal maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish	726
Isamuxamedova Dildora Raxmatillayevna, Qayumova Sabrina To'liqin qizi	
Neologizmlar – badiiy matnda uslubiy vosita sifatida	730
Ibragimova Shoira Normuminovna	
Optimisation of Technical and Physical Potential in the Implementation of the Rotational Method of Pushing the Core.....	733
Tajimbetov Anvar Tengelbayevich	
Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida.....	736
Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modeli	743
Usmonova Kamola Erkinovna	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	749
X. A. Suyunova	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni	752
Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna	
Motivatsiya – inson faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omil sifatida	756
Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li	

Цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении иностранным языкам: теоретико-методологический анализ	760
Абидова М. И., Абидова Д. М.	
Сюжетно-ролевая игра как способ психоэмоционального развития детей дошкольного возраста, находящихся на длительном лечении.....	764
Амитова Майисия Рахмателлаевна	
Эффективные приемы презентации лексики на уроках иностранного языка	767
Гилязиева Насиба Михайловна	
Речевые действия в методике формирования коммуникативной компетенции при обучении РКИ...	770
Ислямова Сония Юнусовна	
Трансформация ценностей, связанных с физической активностью, у представителей разных поколений: результаты современных исследований	779
У. Ш. Салимов	

SPORTNING GANDBOL TURI BO'YICHA TALABALAR O'RTASIDA MUSOBAQALAR TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Berdiyev Jamshid Baxriddinovich

Navoiy davlat universiteti

“Sport faoliyati turlari” kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada sportning gandbol turi bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish texnologiyalarini takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalar, elektron monitoring tizimlari, onlayn ro'yxatga olish hamda musobaqa jadvalini shakllantirish platformalaridan foydalanish orqali musobaqalarni samarali tashkil etish usullari o'rganilgan. Shuningdek, tajriba-sinov ishlari natijalariga ko'ra, raqamli texnologiyalar asosida o'tkazilgan musobaqalarning talabalar ishtiroki, jismoniy tayyorgarligi va jamoaviy o'zaro hamkorlik sifatlariga ijobiy ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari sport metodikasini hamda talabalarning jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: gandbol, sport musobaqalari, talabalar, raqamli texnologiyalar, elektron monitoring, musobaqa texnologiyalari, metodik yondashuv.

Abstract: The article analyzes the scientific and methodological foundations for improving technologies used in organizing and conducting handball competitions among students. The study examines effective approaches to competition management through the application of modern digital technologies, electronic monitoring systems, online participant registration, and scheduling platforms. Experimental findings confirm that the use of digital technologies in sports competitions has a positive impact on student participation, physical fitness levels, and the quality of team cooperation. The research results are of significant practical importance for enhancing sports methodology and improving the effectiveness of physical education systems in educational institutions.

Key words: handball, sports competitions, students, digital technologies, electronic monitoring, competition technologies, methodological approach.

Аннотация: В статье проанализированы научно-методические основы совершенствования технологий организации и проведения соревнований по гандболу среди студентов. В ходе исследования изучены методы эффективной организации соревнований с использованием современных цифровых технологий, электронных систем мониторинга, онлайн-регистрации участников и платформ для формирования расписания соревнований. Экспериментально подтверждено, что применение цифровых технологий при проведении соревнований оказывает положительное влияние на активность участия студентов, уровень их физической подготовленности и качество командного взаимодействия. Результаты исследования имеют важное практическое значение для совершенствования методики организации спортивных мероприятий в образовательных учреждениях и повышения эффективности физического воспитания студентов.

Ключевые слова: гандбол, спортивные соревнования, студенты, цифровые технологии, электронный мониторинг, технологии проведения соревнований, методический подход.

KIRISH

Gandbol – jismoniy faollik, tezkorlik va jamoaviy o'zaro hamkorlikni rivojlantiruvchi sport turidir. O'zbekiston Respublikasida talabalar o'rtasida sportni rivojlantirish, jismoniy tarbiya hamda musobaqalarni tashkil etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrda "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–5887-son¹ Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahka-

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrda "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–5887-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-4631208>



masining 2022-yil 18-martdagi “2021 – 2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ–166-son² qarori sport musobaqalarini tashkil etishda ilmiy-metodik asoslarni joriy etish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni belgilab beradi.

Talabalar o’rtasida gandbol musobaqalarini tashkil etish va o’tkazish jarayoni yuqori tashkiliy aniqlikni, elektron monitoringni hamda real vaqt rejimida natijalarni qayd etishni talab qiladi. Shu sababli zamonaviy raqamli texnologiyalar va metodik yondashuvlarni qo’llash musobaqalar sifatini oshirishga hamda talabalar faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi.

Gandbolga oid qiziqarli ma’lumotlar

Gandbol – jamoaviy sport turi bo’lib, u tezkorlik, chidamlilik, kuch va strategik fikrlashni talab qiladi. Gandbol 19-asr oxirlarida Yevropada rivojlanib, 20-asr boshlarida zamonaviy shaklini olgan. Dastlab o’yin qoidalari hududlarga qarab farqlangan bo’lsa-da, 1920-yillarda Germaniya va Daniyada yagona rasmiy qoidalar ishlab chiqilgan. 1936-yilda gandbol birinchi marta Olimpiya o’yinlarida namoyish etilgan, 1972-yildan esa Olimpiya dasturiga rasmiy sport turi sifatida kiritilgan.

Gandbolning muhim jihatlaridan biri uning yuqori tezkorligi va dinamik xarakterga egaligidir. Maydon uzunligi odatda 40 metr, kengligi 20 metrni tashkil etadi va har bir jamoa maydonda 7 nafar o’yinchi, jumladan darvozabon bilan harakat qiladi. O’yin jarayonida futbol va basketbol kabi sport turlaridan farqli ravishda, o’yinchilar to’pni qo’l bilan ushlab yuguradi hamda qarshi darvozaga yo’naltirish orqali gol kiritadi. Shu bilan birga, o’yin davomida tezkor qaror qabul qilish, jamoa bilan uzviy hamkorlikda harakat qilish talab etiladi.

Yoshlar sporti nuqtai nazaridan gandbol talabalar orasida jismoniy va ruhiy rivojlanishning samarali vositasi hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, muntazam gandbol mashg’ulotlari yurak-qon tomir tizimini mustahkamlaydi, mushak tonusini oshiradi hamda koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantiradi. Shu bilan birga, jamoaviy o’yinlar talabalar orasida muloqot, hamkorlik va strategik fikrlash qobiliyatlarining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Gandbolning qoidalari va texnik jihatlar ham o’ziga xosdir. Xususan, o’yin davomida to’pni 3 soniyadan ortiq ushlab turish yoki 3 qadamdan ortiq yurish taqiqlanadi. Bu esa o’yinchilardan tezkor qaror qabul qilish va pozitsiyani tez o’zgartirish qobiliyatini talab qiladi. Shuningdek, tezkor yugurishlar, sakrashlar va to’pni yuqoridan darvozaga yo’llash kabi harakatlar jismoniy tayyorgarlik darajasini sezilarli oshiradi.

Gandbolni yoshlar o’rtasida rivojlantirish jarayonida raqamli texnologiyalardan ham keng foydalanilmoqda. Jumladan, videoanalitika, elektron hisob-kitob tizimlari va mobil ilovalar yordamida o’yinchilar faoliyati hamda musobaqa natijalari real vaqt rejimida kuzatiladi. Bu murabbiylarga individual va jamoaviy mashg’ulotlarni optimallashtirish, shuningdek, talabalarning kuch, chidamlilik va tezkorlik kabi jismoniy sifatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Shuningdek, dunyo miqyosida gandbol bo’yicha qiziqarli statistik ma’lumotlar mavjud. Jumladan, eng yuqori gol urish ko’rsatkichlari 10 va undan ortiq golni tashkil etadi, o’yin davomida o’rtacha o’yinchi 5–6 km masofani bosib o’tadi hamda har bir o’yinda tezlik va kuchni uyg’un holda qo’llashi talab etiladi. Shu bilan birga, Gandbol federatsiyalari va mahalliy sport tashkilotlari yoshlarni sportga jalb etish maqsadida turnirlar va ligalar tashkil etib, ularning ommalashuviga katta hissa qo’shmoqda.

Yuqoridagi faktlar shuni ko’rsatadiki, gandbol nafaqat jismoniy tayyorgarlikni rivojlantiruvchi, balki talabalar orasida strategik fikrlash, jamoaviy hamkorlik va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantiruvchi sport turi hisoblanadi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalari talabalar orasida gandbol musobaqalarini kengaytirish va ularni raqamli texnologiyalar asosida samarali tashkil etish bo’yicha tizimli choralarni amalga oshirishi muhim ahamiyatga ega.

Maqsadi:

Talabalar o’rtasida gandbol musobaqalarini tashkil etish va o’tkazish jarayonida raqamli texnologiyalarni qo’llash orqali musobaqa texnologiyasini takomillashtirish.

Vazifalari:

- gandbol musobaqalarini tashkil etishning nazariy-metodik asoslarini o’rganish;
- raqamli texnologiyalar va elektron monitoring tizimlarini qo’llash metodikasini ishlab chiqish;
- tajriba-sinov ishlari orqali musobaqalarning samaradorligini aniqlash;
- amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

² O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-martdagi “2021 – 2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ–166-son qarori: <https://lex.uz/docs/-5348948>

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Gandbol sportining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari, xususan O'zbekiston sharoitidagi taraqqiyoti masalalari Asadov tomonidan batafsil tahlil qilingan bo'lib, muallif gandbolning tarixiy rivojlanishi, musobaqaviy faoliyatning evolyutsiyasi va istiqbolli yo'nalishlarini ilmiy asosda yoritadi. Shuningdek, Axmedova tadqiqotlarida gandbol sportining jahon sporti tizimidagi o'rni, uning ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyati hamda talabalar sportida tutgan mavqei ochib berilgan. Ushbu ishlarda gandbol musobaqalarini tashkil etish jarayonida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish zarurati alohida ta'kidlanadi.

Xorijiy ilmiy manbalarda gandbol bo'yicha tadqiqotlarning umumiy holati va rivojlanish tendensiyalari keng yoritilgan. Dharmeshkumar tomonidan amalga oshirilgan tahlilda gandbol ilmiy tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlari, sport faoliyatining murakkab tizim sifatidagi xususiyatlari ko'rsatib berilgan. Henze va hammualiflar tomonidan ishlab chiqilgan monitoring tizimlari esa sportchilarning musobaqaviy faoliyatini baholashda elektron va raqamli texnologiyalarning samaradorligini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqotlar gandbol musobaqalarini tashkil etishda monitoring va raqamli boshqaruv texnologiyalarining ahamiyatini ochib beradi.

Talabalar sporti va jismoniy tayyorgarlik masalalari Mahmudov, Sirojov, Xasonova hamda Xayitov tadqiqotlarida keng yoritilgan. Mazkur ishlar gandbol mashg'ulotlari va musobaqalarining jismoniy tayyorgarlik, koordinatsion qobiliyatlar hamda texnik-taktik ko'rsatkichlarga ta'sirini asoslab beradi. Urazbaev va Daryabaeva gandbol mashg'ulotlarining strukturasi tahlil qilgan bo'lsa, Yusupov tadqiqotlarida gandbolchilar tayyorgarligida ko'rsatkichlar dinamikasini takomillashtirish usullari ko'rsatib berilgan. Ushbu ilmiy ishlarda ilgari surilgan xulosalar gandbol musobaqalarini raqamli texnologiyalar asosida samarali tashkil etish zaruratini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatish va videoanalitika, testlash hamda monitoring usullari, tajriba-sinov ishlari, shuningdek, matematik-statistik tahlil usullaridan, jumladan Excel va SPSS dasturlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Gandbol musobaqalarini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari. Gandbol jamoaviy sport turi bo'lib, talabalar o'rtasida o'tkaziladigan musobaqalar yuqori tashkiliy aniqlikni, o'yin qoidalarini to'liq bilishni hamda tezkor qaror qabul qilishni talab etadi. Musobaqalarni tashkil etish jarayoni tayyorlov, asosiy va yakuniy bosqichlarda amalga oshiriladi. Tayyorlov bosqichida jamoalar shakllantiriladi, ishtirokchilar ro'yxati tuziladi va mashg'ulotlar rejasini ishlab chiqiladi. Asosiy bosqichda o'yinlar o'tkaziladi, hakamlik jarayoni tashkil etiladi va natijalar qayd etiladi. Yakuniy bosqichda esa natijalar tahlil qilinadi, g'oliblar mukofotlanadi hamda metodik xulosalar ishlab chiqiladi. Musobaqalarni samarali tashkil etish maqsadida elektron ro'yxatga olish tizimlari, onlayn jadval platformalari va mobil ilovalardan keng foydalaniladi. Ushbu vositalar talabalar faoliyatini muntazam kuzatish, o'yin natijalarini real vaqt rejimida qayd etish va musobaqa jarayonining shaffofligini ta'minlash imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish. Raqamli texnologiyalar asosida musobaqalarni tashkil etish ishtirokchilar ro'yxati va jamoalarni avtomatik shakllantirish, o'yinlar jadvalini elektron shaklda boshqarish, natijalarni real vaqt rejimida kiritish va onlayn e'lon qilish, videoanalitika yordamida texnik-taktik harakatlarni tahlil etish, shuningdek, musobaqa jarayonini elektron monitoring va statistik ko'rsatkichlar asosida kuzatish imkoniyatlarini yaratadi.

Tajriba-sinov ishlari va natijalari. Tajriba-sinov ishlari 2022–2025-yillarda O'zbekistonning oliy ta'lim muassasalarida o'tkazildi. Tajriba guruhi musobaqalarda raqamli texnologiyalar asosida ishtirok etgan bo'lsa, nazorat guruhi an'anaviy metodika asosida tashkil etilgan musobaqalarda qatnashdi. Olingan natijalar tajriba guruhi ishtirokchilari faoliyati yuqori tashkiliy aniqlik bilan amalga oshganini, jismoniy tayyorgarlik, tezkorlik va chidamlilik ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshganini, shuningdek, jamoaviy hamkorlik va o'yin taktikasini qo'llash qobiliyati yaxshilanganini ko'rsatdi(1,2-jadval).



1-jadval: Talabalar o'rtasida gandbol musobaqalarida jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining o'zgarishi (tajriba guruhi, n=20)³

Ko'rsatkichlar	Musobaqa boshlanishida	Musobaqa yakunida	O'zgarish (%)
20 m yugurish (soniya)	4,8 ± 0,2	4,5 ± 0,2	-6,3
1000 m yugurish (daq.)	4,20 ± 0,25	3,85 ± 0,20	-8,3
Sakrash uzunligi (sm)	185 ± 7	198 ± 6	+7,0
4×10 m chaqqonlik yugurishi (soniya)	11,7 ± 0,3	11,0 ± 0,2	-5,9
Push-up (marta)	15 ± 3	21 ± 3	+40,0

2-jadval: Tajriba va nazorat guruhlarida jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining solishtirma tahlili⁴

Ko'rsatkichlar	Tajriba guruhi (n=20)	Nazorat guruhi (n=20)	Farq (%)
20 m yugurish (soniya)	4,5 ± 0,2	4,7 ± 0,2	-4,3
1000 m yugurish (daq.)	3,85 ± 0,20	4,10 ± 0,25	-6,1
Sakrash uzunligi (sm)	198 ± 6	188 ± 7	+5,3
4×10 m chaqqonlik yugurishi (soniya)	11,0 ± 0,2	11,5 ± 0,3	-4,3
Push-up (marta)	21 ± 3	17 ± 3	+23,5

XULOSA VA TAKLIFLAR

Takliflar:

1. Talabalar o'rtasida gandbol musobaqalarini tashkil etishda raqamli texnologiyalarni muntazam qo'llash.
2. Musobaqa jadvali va ishtirokchilar ro'yxatini elektron shaklda yuritish.
3. Videoanalitika va monitoring vositalari orqali texnik-taktik natijalarni baholash.
4. Talabalar motivatsiyasini oshirish maqsadida musobaqalarni onlayn platformalarda yoritish.
5. Tajriba natijalarini o'quv-mashg'ulot jarayonida metodik material sifatida qo'llash.

Tavsiyalar:

1. Musobaqalarni tashkil etishda yuklamalarni yosh va jismoniy tayyorgarlik darajasiga moslashtirish.
2. Elektron monitoring orqali natijalarni tahlil qilish asosida murabbiylar uchun individual mashg'ulot rejalarini ishlab chiqish.
3. Talabalar va murabbiylar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha treninglar tashkil etish.
4. Musobaqalar jarayonida ma'lumotlarni ma'lumotlar bazasiga kiritish va ularni statistik tahlil qilishni doimiy amalga oshirish.
5. Raqamli texnologiyalar samaradorligini monitoring qilish va ularni muntazam takomillashtirib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asadov F. Gandbol o'yini kelib chiqishi va uni O'zbekistonda rivojlantirish istiqbollari. Molodye Uchenye, 2025 – O'zbekiston sharoitida gandbolning tarixiy rivojlanishi va kelajak istiqbollari haqida ilmiy tahlil.
2. Axmedova Z. T. Jahon sporti arenasida gandbol sportining o'rni va ahamiyati. Pedagogik Tadqiqotlar Jurnal, 2024 – maqolada gandbol sportining global arenadagi o'rni, ijtimoiy va sport tizimidagi ahamiyati tahlil qilingan.
3. Dharmeshkumar P. Handball research: State of the art. JournalNX, 2021 – gandbol bo'yicha ilmiy tadqiqotlar holati va sportning murakkab tizim xususiyatlari tahlili.
4. Henze A. S., et al. Athlete monitoring in handball (ATHMON HB): A systematic review protocol. Systematic Reviews, 2025 – zamonaviy monitoring tizimlari va ularning sport natijalariga ta'siri bo'yicha tizimli ko'rib chiqish protokoli.
5. Mahmudov S. Sh. Talabalar sporti va jismoniy tayyorgarlik. Toshkent, 2021.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5887-son Farmoni, 2019.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-166-son Qarori, 2022.

3 Izoh: Kompleks texnologiyalar asosida o'tkazilgan musobaqa talabalar jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilagan.

4 Tajriba guruhi ko'rsatkichlari nazorat guruhi bilan solishtirganda yuqori bo'lib, raqamli va kompleks musobaqa texnologiyalarining samaradorligini tasdiqlaydi.



8. Sirojov O. O. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining valeologik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. Mono-grafiya. – Navoiy, 2024. – 88 b.
9. Sirojov O. O. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining valeologik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Chirchiq, 2023. – 220 b.
10. Sirojov O. O. Gimnastika va uni o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2020. – 162 b.
11. Sirojov O. O. Physical education and sports – the basis of a healthy lifestyle // International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – T. 05, № 10. – B. xx-yy. – ISSN 2692-5206. – 1232–1234 pp.
12. Sirojov O. O. The results of achievements in the field of sports today // International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – T. 05, № 10. – B. xx-yy. – ISSN 2692-5206. – 2011–2013 pp.
13. Urazbaev N., Daryabaeva A. Analyzing the structure of handball training. Modern Science and Research, 2025 – gandbol mashg'ulotlarining strukturasini tahlil qiluvchi ilmiy maqola.
14. Xasonova Sh. R. Oliy ta'lim muassasalari talaba-qizlarining sport o'yinlari (gandbol, badminton) yordamida koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi. Journal of New Century Innovations, 2025 – talabalarda koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasi.
15. Xayitov B. N. Gandbolchilarni yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarida texnik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi. International Conference on Interdisciplinary Science, 2025 – texnik tayyorgarlikni takomillashtirishga qaratilgan metodik tavsiyalar.
16. Yusupov Z. Methodology for improving the dynamics of development of relative indicators of handball players. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 2025 – gandbolchilarni tayyorlash jarayonida indikatorlar dinamikasini yaxshilash usullari.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.